

## NIKOH VA IJTIMOYIY STEREOTIPLARGA OID NAZARIY VA AMALIY JIHATLAR

Habibjonova Nodira Shavkat qizi  
Tadqiqotchi

### Annotatsiya:

Ushbu maqolada nikoh institutining zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy ahamiyati hamda unga nisbatan shakllanayotgan stereotiplarning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilingan. Jamiyatda erkak va ayol o'rnini, gender tengligi, oilaviy qadriyatlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarning nikoh haqidagi tasavvurlarga ta'siri sotsiologik yondashuv asosida yoritilgan. Maqolada milliy mentalitet, an'anaviy va zamonaviy nikoh modellari o'rtasidagi tafovutlar, shuningdek, ijtimoiy stereotiplarni bartaraf etishning samarali yo'llari tahliliy jihatdan asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** nikoh, ijtimoiy stereotip, gender tengligi, oilaviy qadriyatlar, sotsiologik tahlil, zamonaviy jamiyat, an'anaviy model.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ БРАКА И СОЦИАЛЬНЫХ СТЕРЕОТИПОВ

Хабибжанова Нодира Шавкат кизи  
Исследователь

### Аннотация:

В статье рассматриваются теоретические и практические аспекты института брака и социальных стереотипов, связанных с ним, в условиях современного общества. Проанализированы вопросы роли мужчины и женщины, гендерного равенства, семейных ценностей, а также влияние средств массовой информации и социальных сетей на восприятие брака. Особое внимание уделено анализу различий между традиционными и современными моделями брака и путям преодоления социальных стереотипов.

**Ключевые слова:** брак, социальные стереотипы, гендерное равенство, семейные ценности, социологический анализ, современное общество, традиционная модель.

## THEORETICAL AND PRACTICAL ASPECTS OF MARRIAGE AND SOCIAL STEREOTYPES

Nodira Shavkatovna Khabibjonova  
Researcher

### Abstract:

This article explores the theoretical and practical aspects of marriage and social stereotypes associated with it in the context of modern society. It analyzes the social roles of men and women, gender equality, family values, and the influence of mass media and social networks on perceptions of marriage. The paper also highlights the differences between traditional and modern models of marriage and discusses effective ways to overcome social stereotypes through a sociological perspective.

**Keywords:** marriage, social stereotypes, gender equality, family values, sociological analysis, modern society, traditional model.

Zamonaviy jamiyatda nikoh va oila institutlari nafaqat shaxsiy hayotning, balki ijtimoiy tizimning ham barqarorligini ta'minlovchi asosiy ijtimoiy tuzilmalardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Nikoh – insonlarning ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy va psixologik hayotida muhim o'rin tutuvchi ijtimoiy institut bo'lib, u orqali nafaqat avlodlar davomiyligi, balki jamiyatda ijtimoiy rollar, qadriyatlar va an'analar uzviy ravishda uzatiladi. Shu jihatdan, nikoh institutining zamonaviy shakllari va unga nisbatan mavjud ijtimoiy stereotiplarni tahlil qilish bugungi sotsiologiya fani uchun dolzarb masalalardan biridir.

So'nggi yillarda globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi natijasida nikoh haqidagi qarashlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va pop-madaniyat ta'sirida shakllanayotgan ijtimoiy stereotiplar yoshlarning oilaviy hayotga, gender rollariga va nikoh mas'uliyatiga munosabatini qayta shakllantirmoqda. Bunday sharoitda jamiyatdagi "ideal nikoh" haqidagi tasavvurlar hamda erkak va ayol o'rtasidagi ijtimoiy rollar o'rtasidagi tafovutlar ijtimoiy tahlil uchun muhim obyektga aylanmoqda. Nikoh bilan bog'liq ijtimoiy stereotiplar ko'pincha tarixiy, madaniy va dini omillar ta'sirida shakllanadi. Masalan, ayrim jamiyatlarda erkakning yetakchi roli, ayolning esa uy-ro'zg'or va farzand tarbiyasidagi ishtirokini birlamchi deb hisoblovchi qarashlar hanuzgacha kuchli saqlanib qolgan. Shu bilan birga, zamonaviy ijtimoiy jarayonlar natijasida bu an'anaviy tasavvurlar asta-sekin o'zgarib, gender tenglik, o'zaro hurmat va hamkorlik tamoyillariga asoslangan yangi nikoh modeli shakllanmoqda.

Mazkur maqolada nikoh va ijtimoiy stereotiplar masalasi sotsiologik tahlil nuqtayi nazaridan yoritiladi. Tadqiqotda nikoh institutining jamiyatdagi funksional ahamiyati, ijtimoiy stereotiplarning kelib chiqish sabablari, ularning yoshlar ongiga ta'siri hamda bu stereotiplarni bartaraf etishning nazariy va amaliy mexanizmlari o'rganiladi. Shuningdek, maqolada milliy mentalitet va global madaniyat o'rtasidagi o'zaro ta'sir, oilaviy qadriyatlar transformatsiyasi hamda zamonaviy nikoh modelining sotsiologik xususiyatlari tahlil etiladi.

Bugungi kunda axborotlashayotgan jamiyatda nikoh tushunchasi faqat an'anaviy qadriyatlar bilan cheklanmay, balki zamonaviy ijtimoiy stereotiplar, texnologik yutuqlar va individual hayotiy qarashlar ta'sirida kengaymoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda O'zbekistonda qayd etilgan nikohlarning 70% dan ortig'i shahar aholisi o'rtasida sodir bo'lib, qishloq aholisida esa bu ko'rsatkich 30% ni tashkil etdi. Bu farq urbanizatsiya jarayonining nikoh munosabatlari sezilarli ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ajrimlar statistikasi ham ijtimoiy stereotiplarning oila barqarorligiga ta'sirini aks ettiradi. Ajrimlarning 60% dan ortig'i yosh oilalar orasida, ya'ni turmush qurilganining dastlabki 5 yili davomida sodir bo'lgan. Bu holat ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqaladigan yangi dunyoqarashlar va oila ichidagi nizolarning yetarlicha hal etilmasligi bilan izohlanmoqda. Ilk nikohga kirish yoshida ham o'zgarishlar kuzatilmoqda. So'nggi o'n yillikda, erkaklar uchun ilk nikohga kirishning o'rtacha yoshi 26 dan 28 yoshgacha oshgan bo'lsa, ayollar uchun bu ko'rsatkich 23 yoshdan 25 yoshgacha ko'tarildi[1]. Bu yoshlarning ta'lim va kasbiy rivojlanishga bo'lgan intilishining ortayotganini aks ettiradi.

Bundan tashqari, yosh oilalarning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimlariga murojaat qilish holatlari ham ortib bormoqda. 2023-yilda tashkil etilgan 50 mingdan ortiq oilaviy maslahat markazlarida yosh oilalarga psixologik va huquqiy yordam ko'rsatilgan, bu esa ajrimlarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Nikoh – bu nafaqat ikki shaxs o'rtasidagi huquqiy munosabatlar, balki butun jamiyatga taalluqli bo'lgan keng ko'lamlil ijtimoiy, ma'naviy va madaniy jarayonni ham ifodalaydi. Sotsiologik tadqiqotlarda nikoh tushunchasi doimiy yangilanib turuvchi "ijtimoiy konstruktsiya" sifatida qaraladi: u jamiyatdagi

qadriyatlar, ijtimoiy normalar, huquqiy talablar va turli stereotiplar bilan chambarchas bog'liqdir. Shu boisdan ham, "nikoh" fenomenini har tomonlama o'rganish jarayonida ijtimoiy stereotiplarning o'rni alohida e'tibor talab qiladi. Zero, jamiyatda mavjud bo'lgan stereotiplar, an'anaviy yoki zamonaviy qarashlar, gender munosabatlari, iqtisodiy sharoit hamda ijtimoiy siyosat nikoh munosabatlari shakllanishiga ta'sir etadi.

Quyida biz nikoh va ijtimoiy stereotiplar konsepsiyasini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilib, eng avvalo ushbu stereotiplarning sotsiologik mazmuni hamda O'zbekistondagi (xususan, Yangi O'zbekiston davridagi) nikoh jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatishi yuzasidan fikr yuritamiz. Bunda mahalliy va xalqaro statistik ma'lumotlar, ilmiy adabiyotlar hamda so'rovnomalar asosida olib borilgan sotsiologik tadqiqotlar natijalariga tayangan holda masalani kengroq yoritishga harakat qilamiz.

Nikoh va ijtimoiy stereotiplarning nazariy asoslari-Ijtimoiy stereotip tushunchasi birinchi marotaba amerikalik jurnalist Uolter Lippmann tomonidan fanga kiritilgan bo'lib, u stereotiplarni "odamlar ongida jamiyat yoki muayyan guruh to'g'risida shakllanib qolgan soddalashtirilgan tasavvurlar" deb izohlagan edi[2]. Ijtimoiy stereotiplarning asosiy xususiyati shundaki, ular qisqartirilgan, umumlashtirilgan va ko'pincha emosional tasavvurlar sifatida namoyon bo'ladi. Har qanday stereotip – kishilar ongida shakllanib, keyinchalik butun ijtimoiy guruh, institut yoki hodisa haqidagi yondashuvni aniqlab beradi. Nikoh bilan bog'liq stereotiplar ham shu kabi umumiylikka ega bo'lib, ular turmush qurish, oilaviy rollar, ajrim va oiladagi mas'uliyat kabi masalalarda ijtimoiy me'yorlarni belgilashga xizmat qiladi.

Sotsiologik tadqiqotlarda nikohga oid stereotiplar odatda gender roli, oilaviy rollar, uy-ro'zg'or majburiyatlari, farzand tarbiyasi, oiladagi iqtisodiy munosabatlar kabi ma'lum sohalarida yuzaga keladi. Masalan, patriarchal jamiyatlarda erkaklarning oiladagi yetakchilik rolga nisbatan ijobiy munosabat, ayollarning asosan uy ro'zg'or va farzand tarbiyasiga mas'ul ekani haqidagi tasavvurlar – bularning barchasi uzoq yillik an'anaviy stereotiplar mahsulidir. Zamon yangilanishi, ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi oshishi, iqtisodiy sharoitlarning o'zgarishi esa bu stereotiplarning asta-sekin erib borishiga yoki transformatsiyasiga sabab bo'ladi.

Shu jihatdan, Yangi O'zbekiston davrida nikoh va oiladagi gender munosabatlarini qayta ko'rib chiqish, huquqiy-himoyaviy normalarni takomillashtirish, yoshlarning ongida an'anaviy va zamonaviy qarashlarni uyg'unlashtirish masalasi tobora dolzarblashmoqda. Zero, oilaviy munosabatlarda eski stereotiplar bir tomondan milliy madaniy kod, an'analar sifatida e'tirof etilsa, boshqa tomondan esa, jamiyatdagi islohotlar, modernizatsiya jarayonlari, ayollar huquqlari kengayishi, iqtisodiy sharoitlar o'zgarishi natijasida yangilanib borishi zarur bo'layotganligi ayon bo'lmoqda.

Nazariy jihatdan ijtimoiy stereotiplar sotsiologiya, ijtimoiy psixologiya va madaniyatshunoslikning kesishgan nuqtasida o'rganib kelinadi. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, stereotiplar odatda ijtimoiy tajriba, madaniy meros, ommaviy axborot vositalari, ta'lim va tarbiya orqali kuchayadi yoki susayadi. Nikoh bilan bog'liq stereotiplar ham bundan mustasno emas: bolalikdan boshlab yoshlar ongiga "erkak – oila boquvchisi, ayol – oila tebratuvchisi", "turmush qurish – kelinlik majburiyati", "ajrashgan ayol – kamsitilgan mavqeni egallaydi" kabi turli an'anaviy qarashlar singib ketgan bo'lishi mumkin. Yangi zamon esa ushbu tasavvurlarni turli darajada o'zgartirish, ayrim stereotiplarni buzish, ba'zilarini esa moslashtirishga undaydi[3].

Nikoh va ijtimoiy stereotiplarning amaliy ko'rinishlari: O'zbekistondagi misollar

Stereotiplarning sotsiologik o'lchamlari: O'zbekiston misolida olib qaraganda, nikoh munosabatlarida "erta nikohlar", "nikohda moddiy omil ustuvorligi", "qaynona-kelin munosabatlari", "ajrim ayol uchun

ayb” kabi stereotiplar hanuzgacha ma’lum darajada saqlanib qolgan. Bu stereotiplar amaliy hayotda turli nizolar, kelishmovchiliklar yoki xato qarorlarga olib kelishi, natijada oilaviy muammolar avj olishiga sabab bo’lishi mumkin. Masalan, “erta nikoh” stereotipi tufayli 18–19 yoshga to’lgan qiz yoki yigitni to’y qilmaslik “uyat” yoki “or”dek qabul qilinadi. Vaholanki, yoshlar ruhiy, ma’naviy, iqtisodiy, huquqiy jihatdan turmushga hali tayyor bo’lmasliklari mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilda mamlakatda rasman qayd etilgan nikohlarning 12–15 foizida kuyov yoki kelin yoshi 20 ga yetmagan shaxslar toifasiga mansub bo‘lganligi kuzatilgan. Ba’zi viloyatlarda esa bu ko‘rsatkich 18–20 foizgacha boradi [4]. Ushbu raqamlar qisqa muddatda barqaror oila qurish ehtimolini xavf ostiga qo‘yishi yoki ajrimlar sonining oshishiga zamin yaratishi mumkin. Shu bilan birga, davlat siyosati darajasida erta nikohlarning oldini olish, yoshlarni nikohga tayyorlash, psixologik va huquqiy maslahat xizmati ko‘rsatish borasida “Premarital counseling” amaliyoti yo‘lga qo‘yilgani ijobiy ko‘rinishdir.

“Ayol – oila mustahkamligining mas’uli” stereotipi: O‘zbek jamiyatida uzoq yillik patriarxal an’analar natijasida ayollardan “oilalarning mustahkamligi yo‘lida hamma narsaga chiday olish, hatto zo‘ravonlikka ham” ko‘nikish kutilishi mumkinligi kuzatiladi. Bu stereotip ko‘plab ayollarning oilada huquqiy va psixologik jihatdan zaif bo‘lib qolishiga, huquqiy normalar buzilishiga olib kelishi mumkin. Jumladan, ba’zi tahlilchilar tomonidan qayd etilishicha, oilaviy nizolar va zo‘ravonliklardan jabr chekkan ayollarning 40 foizga yaqini “oilalarning buzilib ketmasin” yoki “sharmanda bo‘lamiz” kabi stereotiplar sababli rasman shikoyat qilmaslikni ma’qul deb hisoblar ekan. Bundan tashqari, 2022-yilda o‘tkazilgan ayrim sotsiologik so‘rovlarning natijalariga ko‘ra, 1000 nafardan ortiq ishtirokchi ayollarning 47 foizi o‘z huquqlari buzilgan holatlar haqida sukut saqlashni afzal ko‘rishgan. Ushbu so‘rovdan ma’lum bo‘ldiki, ular oiladagi tinchlikni buzmaslikni, “oilaviy muammoni tashqariga olib chiqmaslikni” afzal ko‘rishar ekan. Davlat siyosati darajasida qabul qilinayotgan “Ayollar daftari”, “Ayollarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish to‘g‘risida”gi qonun hujjatlari, “Xotin-qizlar huquqlari va erkinliklarini kafolatlash”ga oid qarorlar mazkur stereotipni yengish yo‘lida muhim huquqiy mexanizm sifatida xizmat qilmoqda.

Oilalarning mavjud bo‘lgan ijtimoiy stereotiplarning ba’zilari oilaviy muhit barqarorligiga xizmat qilsa (masalan, o‘zaro hurmat va sadoqatga yo‘naltiruvchi stereotiplar), ayrimlari muammolarni kuchaytirishi yoki haddan ziyod konservativ shaklda mujassamlashishi mumkin. Shu boisdan, zamonaviy sotsiologlar va psixologlar quyidagi tavsiyalarni ilgari surishadi:

Ta’lim tizimida turmush qurishga tayyorgarlik fanlarini kuchaytirish. O‘quv dasturlariga nikoh psixologiyasi, oila iqtisodiyoti, gender tenglik, huquqiy savodxonlik kabi mavzularni kiritish ijobiy samara beradi. Ayrim so‘rovlar shuni ko‘rsatadiki, yosh oilalarning 75 foizi turmush qurishdan oldin oilaviy byudjetni rejalashtirish bo‘yicha malakaga ega emas.

Mediatsiya va psixologik maslahat xizmatlarini rivojlantirish. Oilada nizolarni keltirib chiqaradigan stereotiplardan xalos bo‘lish yoki ularni yumshatish uchun professional mediatorlar, psixologlar va huquqshunoslarning yordami zarur. Amaliyotda ko‘ringanidek, erta bosqichda ko‘rsatilgan psixologik yordam ajrimlar sonini 10–15 foizga kamaytirishga yordam beradi.

OAVda oilaviy qadriyatlar va zamonaviy yondashuvlar targ‘iboti. Televideniye, internet, ijtimoiy tarmoqlar orqali sog‘lom oilaviy muhitni shakllantiradigan, teng huquq va mas’uliyatga asoslangan nikohni targ‘ib qiladigan dastur va ko‘rsatuvlar sonini ko‘paytirish lozim.

Bunda an'anaviy stereotiplarni mutlaqo rad etmasdan, ularni mazmunan boyitish, zarur bo'lsa, qayta talqin qilish samarali bo'ladi.

Davlat siyosati doirasida huquqiy islohotlarni jadallashtirish. Yangi O'zbekiston sharoitida nikoh va ajrim borasidagi qonunchilikni takomillashtirish, gender tenglikni huquqiy kafolatlash, oiladagi zo'ravonlik va tazyiqlarni qat'iy jazolash mexanizmlarini yanada kuchaytirish, shu bilan birga, yosh oilalarni ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash masalalari muhim ahamiyatga ega.

Nikoh sotsiologik nuqtai nazardan, jamiyatdagi eng asosiy ijtimoiy institutlardan biri sifatida qaraladi va u bevosita ijtimoiy stereotiplar bilan uzviy bog'liqdir. Ushbu stereotiplar ba'zan oilaviy hayotda barqarorlik, tartib va ijtimoiy nazoratni ta'minlashga xizmat qilsa, ba'zan esa oilaviy nizolar, ajrimlar va gender tengsizliklariga sabab bo'lishi mumkin. Yangi O'zbekiston sharofatida jamiyatdagi demokratik islohotlar, iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar, ayollarning faolligi ortishi, yoshlarning huquqiy va psixologik savodxonligi oshishi kabi omillar natijasida nikohga oid an'anaviy stereotiplar asta-sekin erib, o'rnini zamonaviy, teng huquqli, mas'uliyatli oilaviy munosabatlar egallab bormoqda.

Shu bilan birga, statistik ma'lumotlar ajrimlar soni ortganini ko'rsatsada, bu holat faqatgina oilalar parchalanayotganining ko'rsatkichi emas, balki jamiyatda "majburiy chidaylik" stereotipining pasayayotgani, huquq va adolatni ta'minlash istagi kuchaygani, ayollar huquqiy savodxonligining oshgani ifodasi sifatida ham talqin etilishi mumkin. Amaliyotda ajrimlarning oldini olish uchun oilaga taalluqli ijtimoiy stereotiplarni to'g'ri boshqarish, "ustuvor stereotip" sifatida adolat, mehr-muhabbat, mas'uliyat, bir-birini tushunish singari musbat qadriyatlarni shakllantirish talab etiladi.

Umuman, nikoh va ijtimoiy stereotiplar o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan, uzluksiz rivojlanish jarayonidagi ijtimoiy hodisalardir[5]. Ularni sotsiologik tahlil qilish orqali jamiyatning ma'naviy-ma'rifiy manzarasi, huquqiy saviyasi, iqtisodiy omillari hamda siyosiy dasturlarining bir butun ko'rinishini aniqlash mumkin. Yangi O'zbekiston kontekstida huquqiy va ma'naviy islohotlar, iqtisodiy ko'mak choralari, ta'lim tizimining yaxshilanishi, OAV faoliyati hamda fuqarolik jamiyati institutlarining hamkorligi tufayli nikoh bilan bog'liq ijtimoiy stereotiplar sezilarli darajada yangilanib, oilaviy munosabatlar sifat jihatidan yaxshilanib borishi kutiladi.

Nikoh va ijtimoiy stereotiplar zamonaviy sotsiologik tadqiqotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Chunki bu tushunchalar inson hayotining eng asosiy ijtimoiy institutlari — oila, gender tizimi va madaniy qadriyatlar bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nikoh institutiga nisbatan shakllanayotgan stereotiplar jamiyatda erkak va ayol o'rtasidagi tenglik, o'zaro hurmat hamda ijtimoiy rollarning taqsimlanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, an'anaviy jamiyatlarda qadimiy qarashlar va gender tafovutlari saqlanib qolgan bo'lsa-da, global axborot oqimlari, raqamli kommunikatsiya va ta'lim tizimidagi o'zgarishlar natijasida bu stereotiplarning qayta talqin qilinishi jarayoni kuzatilmoqda.

Zamonaviy sharoitda nikohga nisbatan qarashlar yanada individuallashtirilgan va pragmatik tus olmoqda. Yoshlar orasida nikohni faqat ijtimoiy majburiyat emas, balki o'zaro mas'uliyat, hamkorlik va shaxsiy o'sish maydoni sifatida talqin etish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu esa oila institutining yangi sotsiokultural shakllarini vujudga keltirmoqda. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari, kino va internet madaniyatida mavjud bo'lgan ayrim stereotipik obrazlar (masalan, "ideal ayol", "moliyaviy jihatdan kuchli erkak", "mukammal oila" kabi) yoshlar ongida ijtimoiy kutishlar va real hayot o'rtasida tafovutlar yuzaga keltirishi mumkin.

---

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati**

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). Aholining demografik holati: 2023-yil yakunlari bo'yicha statistik ma'lumotnoma. Toshkent. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Nikoh va ajrimlar dinamikasi bo'yicha tahliliy hisobot. Toshkent. 2023.
2. Lippmann, W. (1922). Public Opinion. New York: Harcourt, Brace and Company. 1922. – p. 107.
3. Berger, P. L., & Luckmann, T. The Social Construction of Reality: A Treatise in the Sociology of Knowledge. New York: Anchor Books. 1966.
4. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Aholining demografik holati: 2023-yil yakunlari bo'yicha statistik ma'lumotnoma. Toshkent. 2024.
5. Boymurodova, M. (2022). Blogerlik va gender stereotiplari: O'zbek ijtimoiy tarmoqlari tahlili. O'zbekiston Sotsiologiyasi, (4), 2022- 55–63.